

BOSHLANG'ICH TA'LIM MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH: O'QUV DASTURI-O'QITUVCHI-BAHOLASH

**XALQARO ILMYIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
SPORT FAOLIYATI VA PEDAGOGIKA FAKULTETI
BOSHLANG‘ICH TA‘LIM KAFEDRASI**

**“BOSHLANG‘ICH TA‘LIM MAZMUNINI
TAKOMILLASHTIRISH: O‘QUV DASTURI-O‘QITUVCHI-
BAHOLASH”**

**XALQARO ILMIIY-AMALIIY ANJUMAN
MATERIALLARI**

**«СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОДЕРЖАНИЯ
НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: УЧЕБНАЯ ПРОГРАММА-
УЧИТЕЛЬ -ОЦЕНИВАНИЕ»**

**МАТЕРИАЛЫ
НАУЧНО - ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

**“IMPROVING PRIMARY EDUCATION CONTENT:
CURRICULUM-TEACHER-ASSESSMENT”**

**MATERIALS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL
CONFERENCE**

2023-yil 19-oktabr

BUXORO – 2023

Ilmiy anjuman dasturiy qo‘mitasi

- O.X.Xamidov – Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisod fanlari doktori, professor, rais. .
- T.H.Rasulov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais muovini
- F.N.Nurulloyev – IT va IFR departamenti boshlig‘i, a‘zo.
- A.R.Hamroyev – Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, a‘zo.
- M.M.Yuldasheva – Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), a‘zo.
- A.Sh.Husenova – Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), kotib.

Ilmiy anjuman tashkiliy qo‘mitasi

- T.H.Rasulov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais.
- O‘.U.Rashidov – Moliya va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, a‘zo.
- F.N.Nurulloyev – IT va IFR departamenti boshlig‘i, a‘zo.
- A.R.Hamroyev – Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, a‘zo.
- R.A.Qo‘ldoshev – Maktabgacha ta‘lim kafedrası mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, a‘zo.
- M.G.Navro‘zova – Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, a‘zo.
- N.B.Boymurodova – Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo.
- A.Sh.Husenova – Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), kotib.

Mas‘ul muharrir

A.R.Hamroyev, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.

Taqrizchilar:

B.R.Adizov, pedagogika fanlari doktori, professor.

F.M.Qosimov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida Usmon Nosir hayoti va ijodini nafaqat darslar, toʻgaraklar, balki tonggi saflanishlarda ham oʻrgatish mumkin. Xususan, avvaldan tayyorlangan 4 ta rasm saflanish vaqtida fan oʻqituvchisi tomonidan olib kelinadi. Bu rasmlarda Usmon Nosirning sheʼrlari mazmuni aks ettirilgan boʻladi. Usmon Nosir mavzusi 8-sinf adabiyotida yoritilgani bois 8-“A”, “B”, “D”, “E” sinfdan bittadan oʻquvchi chaqiriladi va rasmlardan birini tanlashi aytiladi. Shu boisdan ham bu metod “Oʻzing tanla!” deb nomlanadi. Oʻquvchilar oʻzlari tanlagan rasmda shoirning qaysi sheʼri tasvirlangani va u sheʼr haqida maʼlumotlarni aytadilar. Agar sheʼrlaridan namunalar yodlagan boʻlsalar, ifodali tarzda oʻqib berishlari mumkin. Ushbu metodni qoʻllashning yutuq tarafi shundaki, bir vaqtning oʻzida yuzlab oʻquvchilarni shoir ijodiga qiziqtirish mumkin. Shuningdek, oʻquvchilarni oʻziga boʻlgan ishonchini orttirishda, omma oldida nutq soʻzlash madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Maʼlumki, Usmon Nosir ijodini oʻrganishga qaratilgan darslar, toʻgarak mashgʻulotlarining aksariyati oʻquvchilardan aqliy mehnatni talab qiladi va bu hol tez charchash va fandan zerikishga olib keladi. Shu sababli ham har doim fan nuqtai nazaridan yondashmasdan, turli tadbirlar, anjumanlar tashkil etish, teatr jamoalarini shakllantirish va Usmon Nosir hayot yoʻlini yorituvchi spektakllarni sahnalashtirish orqali ham shoir faoliyatini oʻrganish mumkin. Xususan, oʻtgan 2022-yil oktabr-noyabr oylari davomida Namangan davlat universiteti jamoasi tomonidan Usmon Nosir ijodini oʻrganishga bagʻishlangan katta ilmiy-amaliy xalqaro anjuman tashkil etildi. Anjuman doirasida universitetning “Nihol” talabalar teatr jamoasi tomonidan “Usmon Nosir” spektakli namoyish etildi va ishtirokchilar olqishiga sazovor boʻldi. Sahna namoyishi shu qadar mahorat bilan ijro etildiki, muxlislar koʻzida yosh bilan tomosha qildilar [4]. Spektakl Nodira Rashidovaning “Usmon Nosir” dramasi asosida sahnalashtirildi. Bu kabi badiiy-adabiy tadbirlarni umumiy oʻrta taʼlim maktablarida ham tashkil etilsa, oʻz samarasini koʻrsatishi shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, darsdan tashqari mashgʻulotlar ham taʼlimning uzviy bir qismi sifatida Usmon Nosir hayoti va ijodini oʻrganishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bir soatlik toʻgarak mashgʻulotlari bir nechta fan oʻqituvchilari tomonidan integrallashgan tarzda tashkil etilsa, oʻquvchilarda fanga boʻlgan qiziqishni orttiradi, yuqori samaradorlikka erishiladi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev taʼbirlari bilan aytganda, bugun maktablarda oʻqitish metodikasi oʻzgarmas ekan, taʼlim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham oʻzgarmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-125-sonli “Otashin shoir, tarjimon, dramaturg Usmon Nosir tavalludining 110 yilligini keng nishonlash toʻgʻrisida”gi Qarori (2022-yil 10-fevral) //lex.uz/uz/docs/-5854133
2. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 8-sinfi uchun adabiyot fanidan yillik oʻquv rejasi.
3. Olim S. va boshqalar. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. – Toshkent: “Respublika taʼlim markazi”, 2020.
4. t.me/namdu309 telegram kanali xabarlari

MASOFAVIY OʻQITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Sidiqova Dilora Shavkatovna

Buxoro davlat universiteti Boshlangʻich taʼlim kafedrası
oʻqituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada masofaviy oʻqitishda axborot texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari haqida maʼlumotlar keltirilgan. Masofaviy oʻqitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilish yoʻllari va imkoniyatlari keltirib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: kompyuter texnologiyalar, masofadan oʻqitish, taʼlim vositalari, kasbiy bilim, masofaviy taʼlim, oʻqitish shakli, elektron pochta, elektron aloqa.

Аннотация. В данной статье представлена информация о возможностях использования информационных технологий в дистанционном образовании. Отмечены пути и возможности использования различных информационно-коммуникационных технологий в дистанционном образовании.

Ключевые слова: компьютерные технологии, дистанционное образование, образовательные средства, профессиональные знания, дистанционное образование, форма обучения, электронная почта, электронная коммуникация.

Abstract. This article provides information about the possibilities of using information technologies in distance education. Ways and possibilities of using various information and communication technologies in distance education are mentioned.

Key words: computer technologies, distance education, educational tools, professional knowledge, distance education, form of education, e-mail, electronic communication.

Bugungi kunda kompyuter texnologiyalari va Internet tarmog'ini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Shunga ko'ra, ta'lim tizimidagi o'quv yurtlarida informatika va yangi axborot texnologiyalar bilan birga kasb ta'lim yo'nalishiga tegishli fanlarining o'qitilishi ham davr talabi bo'lib qolmoqda. Masofadan o'qitish usulida o'qituvchi bilan talaba bir-biridan masofa bilan ajralgan bo'lsa ham, doimiy muloqot saqlanib qoladi. Bu o'qitishni nazorat qilishning alohida usuli bo'ladigan elektron pochta va Internet texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiya vositalarini ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli - masofaviy o'qitish yaratilishiga omil bo'ldi.

Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi.

Masofaviy o'qitish barcha ta'lim olish istagi bo'lganlarga o'z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o'qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o'quv-uslubiy materiallarni o'zlashtiradi, nazoratdan o'tadi, o'qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa "virtual o'quv guruhi" talabalari bilan muloqotda bo'ladi.

Ma'lum sabablarga ko'ra, ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlarida tahsil olish imkoniyati bo'lmagan, masalan, sog'ligi taqozo etmaydigan, mutaxassisligini o'zgartirish niyati bo'lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo'lgan kishilar uchun masofaviy o'qitish juda qulay o'qitish shakli hisoblanadi.

Masofaviy o'qitishda turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi, ya'ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog'liq. Masalan, an'anaviy bosma usuliga asoslangan o'qitish vositalari talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, interaktiv audio va video konferensiyalar ma'lum vaqt orasida o'zaro muloqotda bo'lishga, elektron pochta to'g'ri va teskari aloqa o'rnatishga, ya'ni xabarlarini jo'natish va qabul qilishga mo'ljallangan.

"Masofaviy ta'lim" tushunchasi-ta'lim o'quv axborotlarini oluvchiga masofada turib, yetkazib berishni ta'minlovchi (sun'iy yo'ldosh, televideniye, kompyuter tarmoqlari va boshqalar orqali) yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan maxsus ta'lim xizmatlari to'plami sifatida e'tirof etilgan.

Masofaviy ta'lim – masofadan turib o'quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o'qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta'lim oluvchilarga ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi ta'lim majmuaidir.

Masofaviy ta'lim – aholining keng qatlami uchun maxsus informatsion ta'limga qaratilgan bo'lib, masofadan turib o'quv axborotlarini almashish vositalari (yo'ldoshli, aloqa, televideniya, radio, kompyuter va boshqalar) yordamida amalga oshiriluvchi ta'lim xizmatlari majmui hisoblanadi. Masofaviy ta'limda ta'lim jarayoni kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalari hamda boshqa yangi axborot texnologiyalarini qo'llashga asoslangan an'anaviy va innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning dasturiy-texnik vositalaridan foydalaniladi.

Masofaviy ta'limda o'qish xarajatlari tejaladi, hududiy cheklanish bo'lmaydi, o'qishning xilma-xil zamonaviy texnik vositalaridan foydalaniladi, nufuzli ta'lim muassasalarining dasturlari va o'quv-uslubiy majmualaridan foydalanish imkoniyatlari vujudga keladi.

Masofadan o'qitish usulida talaba va o'qituvchi bir-biridan masofa bilan ajralgan bo'lsa ham doimiy muloqot saqlanib qoladi. Bu o'qitishni nazorat qilishning alohida usuli bo'ladigan elektron pochta va internet texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi.

Masofaviy o'qitishning maqsadi talabalarning dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida *mustaqil ishlash* samaradorligini oshirish – ularni ilmiy fikrlashga o'rgatish, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida faolligini kuchaytirishdan iborat. Bunday faoliyatda masofali o'qitishning ulushi kattadir. Ma'lumki, masofaviy ta'limda o'qitish modeli, texnologiyalar, kategoriyalar asosiy o'rin tutadi.

Masofaviy o'qitish tizimi – masofaviy o'qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o'qitish tizimi. Barcha ta'lim tizimlari singari masofaviy o'qitish tizimi o'zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega.

Ta'lim jarayonida masofali o'qitish texnologiyalaridan foydalanish ta'lim mazmuni, shakllari va usullarining ijobiy o'zgarishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Masofaviy o'qitishni qo'llagan holda aholining umumiy bilim darajasini va bu bilimning sifatini oshirish imkoni mavjud. Aholining barcha qatlamlarini bilim olishdagi ixtiyoriy talablarini qondirish mumkin bo'ladi. Bilimlarni o'z vaqtida keng aholiga tarqatish imkoni mavjud. Yagona ta'lim muhitini yaratib, unda barcha bilimlarni mujassamlashtirish imkoni mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov Jamshid Xoliyorovich. Bo'lajak harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish omillari. Dissertatsiya. -T., 2014.

2. Shoyimova Sh.S., Xoshimova M.K., Mirzayeva Sh.R., Qo'ziboyeva M.M. Ta'lim texnologiyalari. Darslik. – T.: "IJODPRINT", 2020. -310 bet.

3. Sidiqova, D. S. (2021). ZAMONAVIY TA'LIMDA MASOFAVIY O'QITISH TIZIMI. *Scientific progress*, 2(7), 1027-1031.

4. Shavkatovna, S. D. (2022). MASOFAVIY TA'LIM SHAROITIDA BOSHLANG 'ICH TA'LIM YO'NALISHI TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 61-62.

5. Sidiqova, D. (2023). MASOFAVIY TA'LIM TUSHUNCHASI VA UNING ANAMIYATI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 31(31).

СТРУКТУРА ДНЕВНИКА ДЛЯ ОРГАНИЗАЦИИ НЕПРЕРЫВНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ

Садуллоева Махфуза Гайбуллоевна

Бухарский государственный университет
Преподаватель кафедры начального образования

Аннотация. В данной статье раскрыты формы правильного оформления дневника будущего учителя начальных классов на примере организации непрерывной педагогической практики.

Ключевые слова: непрерывная педагогическая практика, педагогическое наблюдение, классный руководитель, мероприятие, цель, период.

Annotation. This article reveals the forms of correct design of the diary of a future primary school teacher using the example of organizing continuous teaching practice.

Key words: continuous teaching practice, pedagogical observation, class teacher, event, goal, period.

Выполнение индивидуального плана непрерывной педагогической практики фиксируется в дневнике студента-практиканта (форма 2). Студент ежедневно заносит в

| | |
|---|------------|
| Kasimov F.F. MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETILISHINING AHAMIYATI | 244 |
| Nasimova Nasiba Qurbon qizi. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'TKAZILADIGAN MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIRLAR ORQALI TARBIYALANUVCHILARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISH, TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLASHTIRISH..... | 248 |
| Himoyeva Sarvarbegim. ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILiyATINI RIVOJLANTIRISH..... | 251 |
| Qodirova Saodat Abduraximovna. MAQOL VA MATAL JANRINING SHE'RIYATDAGI O'RNI ... | 253 |
| Saidova Nodira Mustakimovna. NAVOIY G'AZALLARINING MATNIY TAHLILI..... | 256 |
| Ashurova Marhabo Sayfulloyevna. HUSAYN VOIZ KOSHIFIY MEROSINI O'RGANISH JARAYONIDA TALABALARDA MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA | 259 |
| Saidova Nodira Mustakimovna. NAVOIY VA ILOHIYOTGA OID MULOHAZALAR..... | 262 |
| Ortiqova Gulshoda Komiljon qizi. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA USMON NOSIR HAYOTI VA IJODINI O'QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYANING O'RNI | 264 |
| Sidiqova Dilora Shavkatovna. MASOFAVIY O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI | 266 |
| Садуллоева Махфуза Гайбуллоевна. СТРУКТУРА ДНЕВНИКА ДЛЯ ОРГАНИЗАЦИИ НЕПРЕРЫВНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ | 268 |
| Qurbonova Shoira Narzullayevna, Nabiyeva Maftuna. TA'LIM JARAYONIDAGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR | 271 |
| Tog'ayeva Umida Shavqi qizi. "NUTQ O'STIRISH METODIKASI" MODULINI O'QITISHDA LOYIHALASH METODIDAN FOYDALANISH..... | 273 |
| Mavlonova Sevara, Sobirova Jasmina. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI | 276 |
| Saidova Zilola Gadoymurodovna. TA'LIM INNOVATSIYASI VA INTEGRATSIYASI | 278 |
| Asatova Barfiya Faxridinovna. Boshlang'ich sinflarda matematika fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish..... | 280 |
| Tashmatova Shalola Ravshanbekovna. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASH QOBILiyATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOiy ZARURATI | 282 |
| Toshpulatova M.I. TA'LIM TIZIMIDA ILMIY BILIMLAR INTEGRATSIYASINING TURLARI ... | 284 |
| D.Mamanazarova, P.Ashurqulova, Z.Ne'matov. BO'LAJAK O'QITUVCHI KASBIY KOMPETENTLIGINING TUZILMAVIY KOMPONENTI..... | 288 |
| D. Qarshibayev, M. Normatova, S.A. Burxonov. IXTISOSLASHGAN UMUMTA'LIM MAKTABI O'QITUVCHISINING INNOVATION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH | 290 |
| U.Abdumurodova, Z.Abdullayeva, R.Karimova, Z.Ne'matov. BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING QULAY VA SAMARALI USULLARI..... | 292 |
| Shaxnoza Nurmatova Ibroximovna, Farxodova Farangiz Jamshidovna, Xamrayeva Laylo Akmal qizi, Toshkentova Odina Qo'qon qizi, Usmonova Umida Nasriddin qizi, Yoqubjonova Laylo Asqarali qizi. MAMLAKATIMIZDA ILMIY TADQIQOTLARNI TASHKIL QILISH OMILLARI | 296 |
| Axmedov G'. OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH | 298 |
| S.Qodirova, Z.Ikromova, R.Esbosinov. BOSHLANG'ICH SINFLARDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARINI O'RGANISHNING METODIK ASOSLARI | 300 |
| Камилова Гулмира Алимовна. ЭКОЛОГИК ТАРБИЯ ВА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ ПАРЕМИК ЖАНРЛАР ВОСИТАСИДА ШАКЛЛАНТИРИШ | 303 |
| Usmonqulova Sohiba Mirzohid qizi. O'QUVCHILARGA SO'Z TURKUMI HAQIDAGI BILIMNI O'RGATISHNING AMALIY VA NAZARIY ASOSLARI | 305 |
| 5-SEKTOR: BOSHLANG'ICH TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLAR..... | 308 |
| Hakimova Nargiza Supxonovna. BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJTIMOiy KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI | 308 |